

X-FEMIZMLAR: DISFEMIZMLAR VA ULARNING TARIXI, O'ZIGA XOSLIGI

Zuxriddinova Maftunabonu Sirojiddin qizi
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
+998937846808 @zuxriddinovamaftuna.gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikning dolzarb masalalarga boy sohalaridan biri bo'lgan evfemizm va disfemizm hodisalarini o'rganadi. O'zbek tilining lisoniy imkoniyatlari evfemizm va disfemizmning shakllanishiga keng sharoit yaratib bergan bo'lsa-da, disfemizm tushunchasi evfemizmdek keng ko'lamda o'rganilmagan. Maqolaning maqsadi ham x-femizmlar ichida kam o'rganilgan disfemizmga ko'proq e'tibor qaratish va uning klassifikatsiyalashdir. Shuningdek, maqolada tilshunoslikning ushbu hodisalarining asosiy vazifasi va klassifikatsiyasi ham tadqiq etiladi. Turli ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalariga asoslanib, bu ikki hodisa o'zining uzoq yillik rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda ham muhim ahamiyatga ega ekanligi va yangi turlarni o'z ichiga qamrab o'zining hosil qilinish ko'lamini kengaytirib borayotganligi aniqlandi. O'rganishlar natijasida ularning bugungi o'rganilganlik darajasini hisobga olgan holda ularni chuqurroq o'rganish va yangiliklar kiritish kerakligi borasida xulosa va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: x-femizm, evfemizm, disfemizm, ortofemizm, qarg'ish so'zlar, tabu so'zlar, tipiklashtirish, vulgar so'zlar, vulgarizmlar, 'profanity', 'sweet talking', perifraziya.

X-FEMISMS: DYSPEMISMS AND THEIR HISTORY, CHARACTERISTICS

Abstract: This article explores the phenomena of euphemism and dysphemism, one of the areas of linguistics rich in topical issues. While the linguistic possibilities of the Uzbek language have created a broad context for the formation of euphemism and dysphemism, the concept of dysphemism has not been studied as widely as euphemism. The purpose of the paper is also to focus more on and classify dysphemism, which is little studied within x-femisms. The article also explores the main function and classification of these phenomena of linguistics. Based on the conclusions of various scientific research works, it was found that these two phenomena have long stages of development and are also important in modern linguistics and are expanding the scope of its formation, covering new species. As a result of the studies, conclusions and proposals were made regarding the need to study them in more depth and introduce innovations, taking into account the level of their study today.

Key words: x-phemism, euphemism, dysphemism, orthophemism, cursing words, taboo words, vulgar vocabulary, vulgarisms, 'profanity', 'sweet talking', periphrasis.

X-ФЕМИЗМЫ: ДИСФЕМИЗМЫ И ИХ ИСТОРИЯ, ИДЕНТИЧНОСТЬ

Аннотация: В этой статье исследуются явления эвфемизма и дисфемизма, одна из областей лингвистики, богатая актуальными вопросами. Хотя языковые возможности узбекского языка создали широкие предпосылки для формирования эвфемизмов и дисфемизмов, понятие дисфемизма изучено не так широко, как эвфемизм. Цель статьи также состоит в том, чтобы больше сосредоточиться на дисфемизме, который плохо изучен в рамках x-femisms, и его классификации. Также в статье исследуется основная задача и классификация этих явлений языкознания. Основываясь на выводах различных научно-исследовательских работ, было установлено, что эти два явления имеют свои давние этапы развития, имеют важное значение и в современной лингвистике, и расширяют масштабы своего образования, охватывая новые виды. В результате исследований были сделаны выводы и предложения о необходимости их более глубокого изучения и внедрения инноваций с учетом сегодняшнего уровня изученности.

Ключевые слова: x-феминизм, эвфемизм, дисфемизм, ортофемизм, қарателства, табуированные слова, типизация, вульгарные слова, вульгаризмы, "тщеславие", "сладкие разговоры", перифразия.

KIRISH: Tildan muloqot vositasi sifatida fikrlarni, xabarlarini, tuyg'ularni yetkazish uchun foydalaniladi. Odamlar o'z fikrlarini ifoda etishlari uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab til uslublari mavjud bo'lib, ulardan biri majoziy uslubdir. Majoziy uslub- so'zlarning asl ma'nosiga yaqin bo'lmagan ma'nolarini ishlatish va shu orqali so'zga murakkab ma'noni yuklash yoki yuqori ta'sirni yetkazishni anglatadi. Majoziy uslub har qanday muloqot shaklida, masalan, kundalik suhbatda, gazeta, jurnal, romanlar, drama, qo'shiq va hatto filmlarda ishlatilishi mumkin. Badiiy asarlarda personajlar nutqini ifodalash badiiy ijodkordan juda katta mahorat talab qiladi. Har bir personaj nutqi uning ma'naviyatiga, xulq-atvoriga, kasb-koriga, hayotiy tajribasiga, ruhiyatiga, yoshiga, jinsiga mos bo'lishi, hamda uning nutqi orqali o'quvchi badiiy personajning qanday ekanligini anglay olishi kerak. Yozuvchi personaj nutqini uning asardagi o'rniga, o'ziga xos xarakter-xususiyatlariga qarab ishlab chiqadi. Asar qahramonining tabiatiga qarab, yozuvchi uning nutq tuzilishi, so'z boyligi va boshqa til xususiyatlarini tanlaydi. Qahramonni tipiklashtirish va individuallashtirish maqsadida yozuvchi zarur bo'lganda badiiy til leksikasi resurslari – arxaizm, neologizm, professionalism, dialektizm va xatto qarg'ish so'zlar kabi elementlardan ham foydalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

Ta'kidlanganidek, badiiy asardagi sahnalarni o'quvchiga to'laligicha yetkazib berish uchun ijobiy til birliklari bilan bir qatorda salbiy ma'no bo'yog'iga ega til birliklaridan ham keng ko'lamda foylaniladi. Bu borada disfemizm deb nomlanuvchi salbiy bo'yoqdorlik xususiyatiga ega til birligi, uning terminologiyasi, yondosh atamalar va klassifikatsiyasini ko'rib chiqamiz.

X-femizm – (evfemizm, ortofemizm va disfemizm atamalarining hammasiga qo'llaniladi) birinchi navbatda ifodalarni kontekst doirasida baholash orqali aniqlanadi. Fikrlar va munosabatlarning murakkabligi va xilma-xilligi tufayli, hatto ijtimoiy kelib chiqishi bir-xil bo'lgan so'zlovchilar nutqida bir xillikni hech qachon topa olmaymiz. Shuning uchun ham “hammaning efemizmi” yoki “hammaning disfemizmi” degan tushuncha yo'q. Biroq, oddiy so'zlashuvda, mashxur romanlarda, gazeta va jurnallarda qo'llanilgan so'zlarni yoki iboralarni salbiy va ijobiy ma'nolarga ajratishni hamma ham uddalay olmaydi desak xato qilamiz.

X-femizmlar Allan va Burridge tomonidan uch guruhga ajratiladi: evfemizm ('sweet talking'- shirin gapirish), disfemizm ('speaking offensively'- haqoratli gapirish) va ortofemizm ('straight talking'- to'g'ri gapirish). Masalan: *toilet* (ortofemizm)- *loo* (efimizm)- *shithouse* (disfemizm).

X-femizm yangi iboralarni yoki eski iboralar uchun yangi ma'nolarni targ'ib qilish orqali til o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, va ba'zi mavjud so'zlardan voz kechishga sabab bo'ladi. X-femizmlarni yaratishning asosan ikkita usuli bor: so'zning yoki ifodaning o'zgartirilgan shakli bilan yoki denotatning anglashilgan xususiyatlaridan kelib chiqadigan majoziy til bilan. Bunday o'zgarishga giperbola yoki kamsitilish orqali, umumiy atamalar o'rniga o'rganilgan yoki texnik jargon ishlatish va aksincha rasmiy atamalar o'rniga so'zlashuv uslubini ishlatish, ham qisqartma, ham alfavitizm yoki hatto to'liq tushirib qoldirish orqali, shuningdek, tilda mavjud manbalarni birma-bir almashtirish orqali yoki boshqa tildan qarz olish orqali erishiladi. X-femizmlar spikerning ma'lum bir pozitsiyani egallash istagi va o'yinqaroqligi bilan izohlanadi. Evfemizm, ta'bir joiz bo'lsa, qasddan zarba berish va xafa qilish uchun ishlatiladigan haqoratli til (disfemizm)ni yumshoqlashtirish uchun ishlatiladi,. Omma oldida disfemistik so'zni aytish yosh va qari, erkaklar va ayollar uchun "jamoatdagi obro'sini" yo'qotishiga olib keladi. Ortofemizm esa Allan va Burridge tomonidan yaratilgan neologizm bo'lib "yoqimli, haddan ortiq muloyim (evfemistik) bo'lmagan; yoki qattiq, to'mtoq va tajovuzkor (disfemistik) bo'lmagan to'g'ridan-to'g'ri yoki neytral iboralarni ta'riflash uchun ishlatiladi".

TAHLIL VA NATIJALAR:

Disfemizmlar vulgar so'zlardan ma'lum bir nuqtada farq qiladi. Vulgarizmlar ko'pincha jinsiy a'zolar va jismoniy-jinsiy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi yoki shu mavzu atrofida bo'ladi, lekin disfemizmlar bunday tarkibga

ega bo'lmaydi. Ma'lumki, barcha qo'pol so'zlar vulgar so'zlar hisoblanmaydi, lekin barcha vulgarizmlar o'z ichiga qo'pol so'zlarni oladi. Vulgarizmlar va disfemizmlarning ikkisi ham tarkibida la'natlar yoki so'kinishlarni qamrab oladi. Barcha la'natlar va so'kinish so'zlar esa vulgarizm deb hisoblanmaydi. Disfemizmlar qo'pol so'zlar yoki so'z birikmalari deb hisoblanishi to'g'ri, lekin ular o'zlarida vulgarizmni ifoda etmaydi. Demak, disfemizmlar va vulgar so'zlar orasidagi umumiy jihat bu ularning ikkalasida ham qo'pol ma'nolarga, so'kinish hamda la'natlarga egaligidir.

Disfemizm va vulgar so'zlar o'rtasida nozik farq bor. Jinsiy a'zolar tana qismlari sifatida vulgar so'zlar deb hisoblansa, tupurish yoki qusish kabi inson sekretsiyasiga doir so'zlar, disfemizmlar hisoblanadi. Ikkala turdagi so'zlar ham odamni haqorat qilish yoki kamsitishga xizmat qilsada, ammo ular bir-biridan farq qiluvchi mutlaqo boshqacha tushunchalardir. Masalan, kimdir: "men sizning yuzingizga tupuraman" desa, bu vulgar so'z hisoblanmaydi. Lekin buni kamsitish uchun aytilganini bilamiz albatta. Biroq, bu xatti-harakatlar hamma joyda yomon odat sifatida qabul qilinmaydi. Zimbabvedda kimningdir yuziga tupurish salomlashish shaklidir. Shu sababli, agar Zimbabvedda kimdir yuziga tupursa hech kim xafa bo'lmasligi kerak.

Ba'zan ular "profanity" (nopok so'zlar) deyiladi. Ushbu atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilganda "ibodatxonadan tashqarida" ma'nosini anglatadi (pro –tashqarida va fanum- ibodatxona). "Profanity" atamasi 1450-yillarning boshlarida "muqaddas narsani tahqirlash" yoki "dunyoviy maqsad bilan" iste'molga kirgan.

Disfemizmlar so'zlashuv nutqida uchrab turuvchi odatiy so'zlarning ma'nosini keskinlashtirish natijasida paydo bo'ladi. Disfemizm so'zi yunon elementlaridan tashkil topgan ('dys' -"noto'g'ri" va 'pheme' -"nutq, ovoz, obro - e'tibor") 19-asr oxirida iste'molga kiritilgan. Disfemizm- bu mavzu to'g'risida yoki suhbatdosh haqida kamsitadigan ifodalardan foydalanishdir. Masalan, sigaret o'rniga "saraton tayoqchasi" ishlatiladi. Sigaret saratanni keltirib chiqargani uchun bu so'z shu tarzda tasvirlangan. "Bir qop cho'chqa yog'i" iborasi ortiqcha vaznli odamni tasvirlash uchun ishlatiladi. Shuning uchun u "semiz" yoki "baqaloq" so'zlari bilan alamshtirib ishlatilishi mumkin. Disfemizmning yana bir misoli - "sotuvchi" so'zini o'rniga "o'laksaxo'r" so'zini ishlatishdir. Ba'zi sotuvchilar har doim xaridor yoki mijoz kelib, biror narsa sotib olishini kutishadi, xuddi o'laksaxo'r yirtqichlarning o'ljadan uzoqlashishini kutganidek. Ushbu xarakterli xususiyati uchun sotuvchiga shunday nom berilgan.

Hayvonlarning nomlarini o'z ichiga olgan ba'zi disfemistik epitelar mavjud. Bular yordamida so'zlovchi tinglovchini insoniyligini nishonga olib, uni xafa qilishga yoki unga qarshi turishga urinadi. Misollar: "cho'chqa", "tovuq", "suvsar", "qo'y",

"ilon", va "kalamush". Ba'zi hayvon nomlari disfemizmni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu hayvonlardan biri "qo'y" dir. Bu hayvon ko'pincha savodsiz yoki o'qimagan odamni tasvirlash uchun ishlatiladi. Agar kimdir "qo'y" deb nomlangan bo'lsa, u biror narsani tushuna olmaydigan yoki tahlil qila olmaydigan ahmoq deb taxmin qilinadi. Juda ayyor odam sifatida tanilgan odam "tulki" deb, juda xasis odam esa "kalamush" deb nomlanadi. "Kalamush" deb nomlangan odam hech qanday pul sarflashni xohlamaydi.

Har bir xalqning axloqiy, diniy va ijtimoiy qadriyatlari bor. Bir xil ma'noli so'z biz qadriyatlar deb ataydigan tushuncha tufayli turli tillarda turli xil so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Bir so'zga beodob so'z sifatida qaralsa, xuddi shu so'z ba'zi joylarda oddiy so'z sifatida qabul qilinishi mumkin. Misol uchun, "cho'chqa" so'zi ingliz tilida "politsiyachi"ni tasvirlash uchun ishlatiladi (disfemizm sifatida). Politsiyachilar odatda cho'chqa kabi juda semiz bo'lganlari uchun ham shu so'zdan foydalaniladi. Ammo politsiyachini Ozarbayjonda "it" deyishadi. Ko'rinib turibdiki, politsiya kimnidir yoki nimanidir qidiradi va kimnidir ta'qib qiladi. Politsiyachi uchun "it" disfemizmini ishlatish itlarning qidirish va ta'qib qilish xususiyati natijasida paydo bo'ldi. Diniy nuqtai nazardan, "cho'chqa" so'zi musulmon mamlakatda hech qanday aqidaga ega bo'lmagan odamlar uchun ishlatiladi. Ma'lumki, musulmon mamlakatlarida cho'chqa go'shti iste'mol qilinmaydi. Shuning uchun cho'chqa ushbu mamlakatlarda din nuqtai nazardan mutlaqo boshqacha tushunchani ifodalaydi.

Disfemizmlar va perifraziya o'rtasida sezilarli o'xshashlik mavjud. Disfemizm va perifraziya o'rtasidagi yagona farq shundaki, tavsifning maqsadi disfemizmlarda haqorat qilish bo'lsa, perifrazada bunday maqsad ko'zda tutilmaydi. Bu xususiyat vulgar so'zlarda ham kuzatiladi. Ham vulgar so'zlarda, ham disfemizmlarda shunday haqorat va kamsitishga ega ma'nolar qo'llaniladi.

Stilistik nuqtai nazardan ular bir-biriga o'xshaydi, leksik nuqtai nazardan esa, disfemizmlar slenglarga o'xshab ketadi. Evfemizmlarga ta'rif berilganda, biz o'rniga ishlatilgan so'zlardan ko'ra yumshoqroq ma'noga ega so'zlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Slengda ham disfemizmlarda ham biz bunga qarama-qarshi hodisa borligini ko'ramiz, ya'ni neytral so'zni o'rniga qo'polroq so'zlardan foydalaniladi. Misol uchun, qabristonni "suyaklar dalasi" deb atash disfemizm hodisasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Inson kommunikatsiyaga kirishar ekan, uning ushbu faoliyatdan birorta ko'zlagan aniq maqsadi mavjud bo'ladi. Bilamizki inson lingvopragmatik bilimlardan tashqari o'ziga xos semantik bilimlarning egasi ham hisoblanadi. Shu semantik va lingvistik bilimlari orqali muloqot paytida o'z holatini tinglovchiga yetkazib beradi. Bu yo'lda so'zlovchiga nafaqat neytral ma'nodagi so'zlar balki qo'pol so'zlardan foydalanishiga ham to'g'ri keladi. Tilshunoslikda disfemizm hodisasiga turlicha yondashishadi. Bu yondashuv esa yetarlicha asoslangan emas. Disfemizm evfemizmdan bir funksiyasi bilan farq qiladi, ya'ni bu tizim tabuga

asoslangan. Xulosa qilganda disfemizm-bu odamlar haqida yoki vaziyat to'g'risida kamsituvchi ma'nolarga ega bo'lgan ibora. Disfemizmlar neytral yoki evfemistik iboralarga antonim bo'lgan birliklar hisoblanadi. Disfemizmga qo'rquv, ishonchsizlik, nafrat, yoki hazil sabab bo'lishi mumkin. Evfemizmlar va disfemizmlar nihoyatda boy lingvistik hodisa bo'lib, ularning amaliy qiymatini muhokama qilishga ko'p tadqiqot ishlari sarflashni talab qiladi. Chunki tildagi disfemizmlar va evfemizmlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki til tarixi va etnografiya uchun ham muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allan, Keith; Burrige, Kate (2001). *Euphemism and Dysphemism: Language Used As Shield and Weapon* (1st Replica Books ed.). Bridgewater, N.J.: Replica Books
2. <https://en.wikipedia.org/wiki/Euphemism>
3. Marquis, A.N. (1940). "The Monthly Supplement: a current biographical reference service, Volumes 1-2". *The Monthly Supplement*. United States: A.N. Marquis. 1–2: 337.
4. Oxford English Dictionary Online, "profane", retrieved 2012-02-14
5. Rawson, Hugh (1989). *Wicked words: a treasury of curses, insults, put-downs, and other formerly unprintable terms from Anglo-Saxon times to the present* (1st ed.). New York: Crown Publishers.
6. 1. Nadjapova N.A. Fors tilida evfemizm va tabu so'zlarning funksional va semantik tahlili: Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 2013. -35 b.
7. Qodirova X.B. O'zbek tilida evfemizm va disfemizm. O'uv-uslubiy qo'llanma. -T.: 2013
8. Umurov H. Adabiyot nazariyasi: darslik. Sharq. -T.:2002